



XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 26-dekabr

VII-4-029-12-0-K/24

Xorazm viloyati

Xorazm viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" O'RQ-1011-sonli qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 14-oktabrdagi 01-1239-sonli va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrda 01/51-1-26807-sonli xatlarini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi

Qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonuni (keyingi o'rinlarda qonun deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qonunga muvofiq viloyat mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari 3 166,4 mlrd. so'm va xarajatlari 4 497,2 mlrd. so'mni tashkil qilgani ma'lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 1 330,8 mlrd. so'm miqdorida, shundan aksiz solig'i tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar 171,3 mlrd. so'm miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. 2025-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tumanlar va shaharlar budjetlariga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar, daromadlari xarajatlaridan yuqori bo'lgan shahar va tumanlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar, daromadlari xarajatlaridan yuqori bo'lgan shahar va tumanlar bundan mustasno);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining kamida 50 foizi (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar, daromadlari xarajatlaridan yuqori bo'lgan shahar va tumanlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

b) viloyatning viloyat budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar);

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar);

benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar);

davlat bojlari;

jarimalar;

yig'imglar;

davlat ulushi bo'yicha dividendlar;

davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

budjet tashkilotlarining o'tgan yillarda olingan va foydalanilmagan budjet mablag'larini, shuningdek o'tgan yillardagi debitorlik qarzlarini qaytarish;

budjet tashkilotlarining asosiy vositalarini sotilishidan tushumlar;

boshqa soliqlar va tushumlar.

tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar, tegishli o'tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan viloyat aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq o'tkazilgan qismi. Bunda daromadlar bo'yicha prognozning bajarilmagan qismi viloyatning viloyat budjetiga respublika budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi, daromadlar bo'yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika budjeti ixtiyorida qoladi.

d) tumanlar va shaharlar budjetlari hamda viloyat mahalliy budjeti o'rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

benzinni, dizel yonilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i.

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlar tumanlar va shaharlar budjetlari hamda viloyat mahalliy budjeti o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

4. Quyidagilar:

2025-yil uchun Xorazm viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi hamda 2026-2027-yillarga maqsadli mo'ljallari 1-ildovaga;

viloyat mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari 2-ildovaga;

viloyatning viloyat budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga;

viloyat, tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek soliq bo'lmagan to'lovlar bo'yicha belgilanadigan normativlari 4-ilovaga;

mahalliy budjetlarning 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratma me'yorlari bo'yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda "Davlat moliyasini boshqarish" axborot tizimiga Xorazm viloyati g'aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo'yilsin.

5. Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2025-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Viloyatning viloyat budjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining 2025-yilda yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 8 791,0 mln. so'm etib hamda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

7. Viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2025-yil uchun 21,2 mlrd. so'm miqdorida belgilansin. Bunda:

shahar (tuman)lar mahalliy budjetlarining 2025-yil uchun zaxira jamg'armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag'lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin;

viloyat, shahar (tuman)lar budjetlarining zaxira jamg'armalari mablag'larini amaldagi Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta'minlansin.

8. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Iskandarov)ga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi "Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-299-sonli qaroriga asosan shahar (tuman)lar mahalliy budjetlarida ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi" xarajatlari uchun rejalashtirilgan mablag'larni yil davomida haqiqatda shakllanadigan talabdan kelib chiqib, shahar (tuman)lar o'rtasida qayta taqsimlash vakolati berilsin.

9. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari M.Achilov, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Iskandarov), viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarning o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

10. Barcha shahar (tuman)lar hokimliklari, mas'ul boshqarma va tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushimini ta'minlash

hamda budget daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

11. Viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov) hududiy soliq organlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

solliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishi hamda ushbu solliqlarning o'z vaqtida budgetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o'rnatish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk solliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, solliqlarning to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzдорligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish, ya'ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

12. Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (J.Jumaniyazov), viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov) bilan hamkorlikda solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzдорliklarini budgetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzдорliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rish vazifasi yuklatilsin.

13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Raximov) bo'sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (U.Qalandarov) bilan birgalikda:

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo'yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko'ra viloyatda mavjud bo'sh turgan davlat mulki obyektlari ro'yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash choralarini ko'rsin.

14. Chapqirg'oq Amudaryo irigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (O.Toirov) va viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov) shahar (tuman)lar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug'orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun solliqlarning to'liq hisoblanishi hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budgetlarga to'liq undirilishini ta'minlasinlar.

Bunda, qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv solliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratsin.

15. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (R.Sultanxodjayev), viloyat adliya boshqarmasi (N.Jumaniyozov) viloyatda budgetga hisoblangan boj, jarima va yig'imlarni o'z vaqtida to'liq mahalliy budgetga undirish choralarini ko'rib borsinlar.

16. Viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov), viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi (X.Sabirov) shahar (tuman)lar hokimlarining birinchi o'rinbosarlari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709-sonli qaroriga asosan qishloq xo'jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo'shimcha to'lov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy budgetlarga undirish choralarini ko'rsinlar.

17. Xalq deputatlari hududiy Kengashlari hamda shahar (tuman)lar hokimlari O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budget sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budgetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi hamda budget mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o'rnatish.

18. Hududiy budget mablag'larini taqsimlovchilar har yili 25-yanvar kuniga qadar budget mablag'larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to'g'risida mahalliy Kengashlarga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy budget mablag'larini taqsimlovchilar:

o'z tasarrufidagi tizimda budget intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat olib borilishi;

o'zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to'g'ri tuzilishi;

budgetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budgetdan ajratiladigan mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi;

budgetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarning to'liq rejalashtirilishi va o'z vaqtida to'lanishi;

budget jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlar joylashtirib borilishini ta'minlasinlar.

19. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (A.Sobirov) shahar (tuman)lar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to'liq xatlovdan o'tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo'yicha shartnomalar tuzish choralari ko'rsin hamda ushbu shartnomalar bo'yicha yig'imlarning budgetga to'lanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish.

20. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (B.Ochilov) budgetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishini nazorat qilsin va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borsin.

21. Viloyat hokimligi axborot xizmati (A.Odambayev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi (D.Bekchanova)ga viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Iskandarov) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarning e'lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etish tavsiya etilsin.

22. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi raisi K.Igambergenov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



RADJABOV ALTIBAY
BEGJANOVICH

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrda
VII-4-029-12-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**2025-yil uchun Xorazm viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlari prognozi hamda 2026-2027-yillarga maqsadli mo'ljallari**

T/ r	Ko'rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	2026-yil uchun mo'ljal	2027-yil uchun mo'ljal
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd so'm	58 626,1	66 672,4	75 399,0
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati, foizda	106,0	106,0	106,0
3.	Iste'mol narxlari indeksi, o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda	8,3	8,1	7,9
4.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	106,2	106,7	107,1
5.	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	103,9	104,0	104,1
6.	Chakana tovar aylanmasining o'sish sur'ati, foizda	108,3	108,5	108,7

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrda
VII-4-029-12-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**Viloyat mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz
ko'rsatkichlari**

ming so'mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		1 715 906 050,0
1.	Foyda solig'i	271 255 000,0
2.	Aylanmadan olinadigan soliq	0,0
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	827 270 800,0
4.	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	0,0
5.	Aksiz solig'i jami	199 624 750,0
	<i>alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)</i>	5 317 500,0
	<i>pivo</i>	0,0
6.	benzin, dizel yonilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i	194 307 250,0
7.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	80 856 500,0
8.	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	0,0
9.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	64 421 000,0
10.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	0,0
11.	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	0,0
12.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,0
13.	Davlat ulushi bo'yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	993 000,0
14.	Davlat boji	118 972 000,0
15.	Yig'imlar	66 389 000,0
16.	Jarimalar	86 124 000,0
17.	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	0,0

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrda
VII-4-029-12-0-K/24 -son qaroriga
3-ilova

**Viloyatning viloyat budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag'larini
taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari**

<i>ming so'mda</i>		
T/r	Hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	3 046 730 229
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 962 723 837
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	48 900 000
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	35 106 392
1.	Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi	357 979 092
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	357 979 092
	shundan:	
	Yoshlik sport markazi xarajatlari	644 601
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
2.	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi	127 718 658
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	127 718 658
	shundan:	
	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasini saqlash xarajatlari	746 356
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
3.	Sog'liqni saqlash boshqarmasi	140 277 404
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	106 277 404
	shundan:	
	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	3 492 108
	Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	1 563 471
	Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	0
	Sog'likni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	1 052 818

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	34 000 000
4.	Madaniyat boshqarmasi	63 792 428
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	63 792 428
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
5.	Ma'naviyat va ma'rifat markazi	2 173 192
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 173 192
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
6.	Sport boshqarmasi	110 465 413
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	110 465 413
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
7.	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi	4 162 697
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 162 697
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
8.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi	14 133 446
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 133 446
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
9.	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi	48 023 517
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	48 023 517
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
10.	Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	94 349 917
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	79 449 917
	shundan:	
	Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	38 280 005
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	14 900 000
11.	Transport boshqarmasi	1 486 831
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 486 831
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
12.	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi	17 436 991
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	17 436 991
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
13.	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	1 754 643 613
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 754 643 613
	shundan:	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	6 500 000
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	1 700 000
	Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	11 672 133
	G'aznachilik xizmati qo'mitasining hududiy boshqarmasi	8 803 400
	Kadastr agentligi Xorazm viloyati boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 416 670
	Davlat qarzlarini (asosiy qarz) so'ndirish bo'yicha xarajatlari	0
	Xalqaro moliyaviy institutlardan O'zbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar bo'yicha to'lovlar	0
	Davlat ichki qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha boshqa asosiy to'lovlar	0
	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar bo'yicha asosiy to'lovlar	0
	Tibbiy sug'urta jamg'armasiga o'tkaziladigan transfertlar	1 713 549 527
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	35 106 392
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
14.	Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi	1 436 608
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 436 608
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
15.	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi	1 469 076
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 469 076
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
16.	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi	5 308 199
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 308 199
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
17.	Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi	8 737 433
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 737 433

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
18.	Adliya boshqarmasi	11 525 461
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 525 461
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
19.	Soliq boshqarmasi	83 629 561
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	83 629 561
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
20.	Hokimlik	119 859 960
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	119 859 960
	shundan:	
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo'limlari	83 322
	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o'quv kursi	570 062
	Zaxira jamg'armasi	21 225 655
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	596 405
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi	3 909 340
	Davlat qarzlarini (asosiy qarz) so'ndirish bo'yicha xarajatlar	227 859
	Xalqaro moliyaviy institutlardan O'zbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar bo'yicha to'lovlar	28 573 540
	Davlat ichki qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha boshqa asosiy to'lovlar	1 645 125
	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar bo'yicha asosiy to'lovlar	40 762 976
	Avtobus yo'nalishlarini subsidiyalash	6 346 454
	Issiqlik ta'minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	1 722 000
	Issiqlik ta'minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo'llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	2 108 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0
21.	Hokimlik (Obodonlashtirish boshqarmasi)	3 670 000
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 670 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
22.	Hokimiyat (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	19 440 548
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	19 440 548
	shundan:	
	Qabul uylarini saqlash xarajatlari	6 529 863

	Axborot-kutubxona markazlari	3 045 837
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	9 266 561
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
23.	Saylov komissiyalari	0
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
24.	Ichki ishlar boshqarmasi	7 586 505
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 586 505
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
25.	Mudofaa ishlari boshqarmasi	3 179 611
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 179 611
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
26.	Oila va xotin-qizlar qo'mitasining hududiy boshqarmasi	6 411 706
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 411 706
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
27.	Boshqa tashkilotlar	2 725 970
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 725 970
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-029-12-0-K/24 -son qaroriga
4-ilova

**Viloyat, tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar,
shuningdek, soliq bo'lmagan to'lovlar bo'yicha belgilanadigan normativlari**

T/r	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i				Foyda solig'i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1.	Urganch shahri	0%	8%	100%	92%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
2.	Bog'ot tumani	0%	58%	100%	42%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
3.	Gurlan tumani	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
4.	Qo'shko'pir tumani	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
5.	Urganch tumani	0%	43%	100%	57%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
6.	Hazorasp tumani	0%	69%	100%	31%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
7.	Xonqa tumani	0%	64%	100%	36%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
8.	Shovot tumani	0%	88%	100%	12%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
9.	Yangiariq tumani	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
10.	Yangibozor tumani	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
11.	Xiva tumani	0%	97%	100%	3%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%

12.	Xiva shahri	0%	71%	100%	29%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
13.	Tuproqqal'a tumani	0%	80%	100%	20%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%

T/r	Hududlar nomi	Pivo				Benzin, dizel yonilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1.	Urganch shahri	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	15%	100%	85%
2.	Bog'ot tumani	0%	0%	100%	100%	0%	59%	100%	41%	0%	100%	100%	0%
3.	Gurlan tumani	0%	0%	100%	100%	0%	62%	100%	38%	0%	100%	100%	0%
4.	Qo'shko'pir tumani	0%	0%	100%	100%	0%	60%	100%	40%	0%	100%	100%	0%
5.	Urganch tumani	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%
6.	Hazorasp tumani	0%	0%	100%	100%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%
7.	Xonqa tumani	0%	0%	100%	100%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%
8.	Shovot tumani	0%	0%	100%	100%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%
9.	Yangiariq tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
10.	Yangibozor tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
11.	Xiva tumani	0%	0%	100%	100%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%
12.	Xiva shahri	0%	0%	100%	100%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%
13.	Tuproqqal'a tumani	0%	0%	100%	100%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%

T/r	Hududlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i				Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1.	Urganch shahri	0%	25%	100%	75%	0%	100%	100%	0%
2.	Bog'ot tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
3.	Gurlan tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
4.	Qo'shko'pir tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
5.	Urganch tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
6.	Hazorasp tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
7.	Xonqa tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
8.	Shovot tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
9.	Yangiariq tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
10.	Yangibozor tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
11.	Xiva tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
12.	Xiva shahri	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
13.	Tuproqqal'a tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

T/r	Hududlar nomi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo'yicha dividendlar			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1.	Urganch shahri	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
2.	Bog'ot tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
3.	Gurlan tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
4.	Qo'shko'pir tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
5.	Urganch tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
6.	Hazorasp tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
7.	Xonqa tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
8.	Shovot tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
9.	Yangiariq tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
10.	Yangibozor tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
11.	Xiva tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
12.	Xiva shahri	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
13.	Tuproqqal'a tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%

T/r	Hududlar nomi	Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yigʻimlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
1.	Urganch shahri	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
2.	Bogʻot tumani	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
3.	Gurlan tumani	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
4.	Qoʻshkoʻpir tumani	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
5.	Urganch tumani	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
6.	Hazorasp tumani	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
7.	Xonqa tumani	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
8.	Shovot tumani	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
9.	Yangiariq tumani	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
10.	Yangibozor tumani	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
11.	Xiva tumani	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
12.	Xiva shahri	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
13.	Tuproqqalʼa tumani	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-029-12-0-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Mahalliy budjetlarning 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming so'mda

T/ r	Hudud nomi	Daromad*	Xarajat
JAMI		3 166 387 500,0	4 497 211 679,0
1.	Viloyat budjeti	1 715 906 050,0	3 011 623 837,0
2.	Urganch shahri	155 935 074,0	155 935 074,0
3.	Bog'ot tumani	110 218 821,0	110 218 821,0
4.	Gurlan tumani	122 919 337,0	122 919 337,0
5.	Qo'shko'pir tumani	128 116 723,0	128 116 723,0
6.	Urganch tumani	125 044 219,0	125 044 219,0
7.	Hazorasp tumani	113 060 250,0	113 060 250,0
8.	Xonqa tumani	128 356 130,0	128 356 130,0
9.	Shovot tumani	131 723 509,0	131 723 509,0
10.	Yangiariq tumani	91 306 000,0	103 089 280,0
11.	Yangibozor tumani	76 006 832,0	99 329 944,0
12.	Xiva tumani	104 118 000,0	104 118 000,0
13.	Xiva shahri	89 699 571,0	89 699 571,0
14.	Tuproqqal'a tumani	73 976 984,0	73 976 984,0

**tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bo'yicha transfertlarni hisobga olmagan holda*

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-029-12-0-K/24 -son qaroriga
6-ilova

**Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2025-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan
tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari**

ming soʻmda

T/r	Shahar (tuman)lar	Tartibga soluvchi transfert miqdori	<i>shundan, aksiz soligʻi tushumlari hisobidan ajratilgan mablagʻlar*</i>
	JAMI	1 330 824 179,0	171 331 000,0
	<i>shundan</i>		
1.	Viloyat budjeti	1 295 717 787,0	171 331 000,0
2.	Urganch shahri	0,0	0,0
3.	Bogʻot tumani	0,0	0,0
4.	Gurlan tumani	0,0	0,0
5.	Qoʻshkoʻpir tumani	0,0	0,0
6.	Urganch tumani	0,0	0,0
7.	Hazorasp tumani	0,0	0,0
8.	Xonqa tumani	0,0	0,0
9.	Shovot tumani	0,0	0,0
10.	Yangiariq tumani	11 783 280,0	0,0
11.	Yangibozor tumani	23 323 112,0	0,0
12.	Xiva tumani	0,0	0,0
13.	Xiva shahri	0,0	0,0
14.	Tuproqqalʼa tumani	0,0	0,0

*tamaki uchun aksiz soligʻi boʻyicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablagʻlar

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrda
VII-4-029-12-0-K/24 -son qaroriga
7-ilova

**Viloyatning viloyat byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet
mablag‘larining 2025-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori**

ming so‘mda

T/r	Shahar (tuman)lar	Miqdor
JAMI		19 500 000,0
	<i>shundan</i>	
1.	Viloyat byudjeti	8 791 000,0
2.	Urganch shahri	945 000,0
3.	Bog‘ot tumani	870 000,0
4.	Gurlan tumani	882 000,0
5.	Qo‘shko‘pir tumani	914 000,0
6.	Urganch tumani	985 000,0
7.	Hazorasp tumani	941 000,0
8.	Xonqa tumani	833 000,0
9.	Shovot tumani	921 000,0
10.	Yangiariq tumani	766 000,0
11.	Yangibozor tumani	588 000,0
12.	Xiva tumani	977 000,0
13.	Xiva shahri	606 000,0
14.	Tuproqqal’a tumani	481 000,0